IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANIDA MUHABBAT TALQINI

Rajapova Xulkaroy Atabek qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

hulkaroyrajapova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada taniqli adib Iqbol Mirzoning “Bonu” romanidagi muhabbat mavzusi haqida fikr yuritiladi. Mavzu jihatidan yangiligi hamda badiiy talqini haqida mulohazalar bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: Iqbol Mirzo, “Bonu” romani, muhabbat mavzusi, badiiy tahlil.

Muammoning qo‘yilishi. Hammaga ma’lumki, har bir ijodkor o‘z asarida mangu mavzulardan biri – muhabbatni o‘ziga xos tarzda talqin etadi. Mavzu har bir konkret asarda adibning mahorati tufayli o‘ziga xos tarzda ifoda etiladi. Iqbol Mirzoning birinchi romani – “Bonu” da biz noodatiy muhabbatga duch kelamiz. Gap mana shu mavzuning asar syujetida qanchalik ahamiyatli o‘rin tutganida. Toshkentda o‘tgan “Turkiston xalqlari mushoirasi”da to‘lib-toshib she’r o‘qiganida Chingiz Aytmatov behad quvonib, Iqbol Mirzoning she’rlariga yuksak baho bergani hammamizning yodimizda”, - deya eslaydi Umarali Normatov [1.“Ijod sehri”,144-bet].

Mavzu tahlili. Ba’zan hayot biz kutganimizday davom etmas ekan. To‘xtash kerak bo‘lsa, to‘xtab qolasiz. Gohida hayot maydonida mardonavor kurashasiz. Bunda kimdir sizga yelkadosh bo‘lib tursa, kimdir esa, bir oddiy idishni sindirganday ko‘nglingizni chilparchin qilib tashlaydi. Bu hayotda sizga quvonch ham, qayg‘u ham, amalga oshgan istaklar ham, armon ham hamroh bo‘ladi. Armon, armon… “Bonu” romanida aytilganiday: “Armon toshdek zil bo‘lgani uchun ham dil tubiga cho‘kadi.” Endi ayting-chi, “toshlari tog‘dek qalashib ketgan yurakni nima deb atash mumkin? Toshyurak deymizmi? Inson shu tariqa bag‘ritoshga aylanadimi? Bu metin ko‘ngilni nechuk taft, harorat eritadi! Qanday kuch unga qayta jon bag‘ishlaydi? Qaysi qudrat bu toshlarda gul undira oladi?” [2. Iqbol Mirzo “Bonu”, 5-bet] Siz bu savollarning javobini bilolmaysiz… Sizga ming bir og‘riq beradigani esa, dilingizdan joy bergan insonlar dilingizni ranjitishidir! Oyoq artmasdan kirib, ko‘nglingiz xonasini kirlantirib, changitib chiqib ketishga ularning nima haqqi bor? Bunga qanday jur’at eta oladilar?! Ularga ishonganingizning oqibati shunday yakun topib ketaveradimi? Ehh dilim… sodda dilginam!

Ana shunday ming xil o‘y-xayollar bilan romanni o‘qishda davom etasiz. Bunda ayniqsa, Olmos bilan Bonuning tanishib qolishi ham qiziq bo‘lgan: yanglishib boshqa telefon raqamiga Bonu pul tashlab yuboradi. Keyin telefoniga pul tushmagach, kompaniyaga borib surishtirib ko‘rsa, uning puli boshqanikiga o‘tib ketganini bilib keladi. So‘ngra, o‘sha raqam egasi Bonuga hol–ahvol so‘rash maqsadida sim qoqadi. Bu qo‘ng‘iroq qilishlar tanishuvga, uzoq suhbatlarga ulanib ketadi. Vaholanki, Bonuga sim qoqadigan raqam egasi – Olmos tibbiyot instituti talabasi edi. Bonu bu talabaga bog‘lanib qoladi. Va nihoyat, paxta terimining “ertaknamo oqshomlaridan birida” Olmos Bonuni izlab keladi. Keyin “… qancha vaqt, qancha zamonlar goh ko‘z to‘qnashib, goh nigoh qochib shiypon yonida telbavor qolib” ketadilar. [3. Iqbol Mirzo “Bonu” 15-bet] Bu ikki yosh shu tariqa bir-biriga ko‘ngil qo‘yadi, Bonu “endi ishq dunyosiga hijrat” qiladi. Olmos Bonuni ko‘rmoq uchun dorilfununga kelib, u bilan uchrashib ketadi. Tug‘ilgan

kunida esa, unga "… yuragimni asrab-avaylab yura olasizmi?" – deya uzuk sovg‘a qiladi! Shu tarzda ikkala yosh tez-tez uchrashib turadilar, shahar aylanadilar. Bu orada Bonu Shoira opasinikida yashayotganida koreys qizi Sushi bilan tanishib, yaqin dugona bo‘lib qoladi. Ba’zida Sushi ham Olmos bilan Bonuga qo‘shilib, shahar aylanishga borib turadi. Do‘stlarning ana shu uchrashuvidan birida Sushi hech o‘ylanmasdan "ko‘ngil - insonning dushmani", - deydi. Qizning bu gapidan yuragingiz bir seskanib ketadi. Haqiqatan ham shundaymi? Ko‘ngil insonga dushmanlik qila olishi mumkinmi? Ochig‘ini aytsam, men ham bilolmadim… Avvalida ularning munosabatini ko‘rib havas qilasiz! Ularning hozirgi baxtiga baxtlar tilaysiz! Ularni Minorai Kalon yonida ko‘rib qolgan Bahrullo Ahmad ustoz ham: "Unutmang, muhabbatli oila insonning oliy baxtidir, uni Alloh o‘zi tanlagan munosib ko‘rgan bandalariga beradi, … muhabbat saroyida sadoqat va ishonch sizlarg‘a posbon bo‘lg‘ay", - deya duo qiladi. [4. Iqbol Mirzo "Bonu" 95-bet]

Keyinchalik esa voqealar biz kutmagan tomonga o‘zgarib ketadi. Yusuf tufayli Bonu yomon otliq bo‘lib qoladi. Fikrimcha, Yusufning sevgisi sevgi emas. Agar unda g‘urur bo‘lganida o‘zi uylanishni istagan qizning nomiga loy chaplatarmidi? Beixtiyor "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostoni yodimga keldi. Unda Jambilning vaxshiy xoni go‘zal Oygulga qarashi quyidagicha tasvirlanadi:

"Qizning oldida bu xirs,

Ko‘rsatib yovvoyi hirs."

"Xirs" so‘zi fors-tojik tilida ayiq ma’nosini bildiradi. "Hirs" esa, nafsning bir ko‘rinishi. Yusuf ham nafsini boshqara olmaydiganlardan biri. "Maraz, ablah, tuban" Yusufni deb bechora Bonu isnodga qolib ketadi.

Biroz vaqtdan keyin yurak huruji bilan otasining vafot etishi, o‘zi birdan kasallikka chalinishi bilan voqealar rivoji boshlanib ketadi. Bonuning ahvoli yomonlashib, jigar faoliyati buzilganida, men Olmos dalda bo‘lishini, hattoki o‘zi davolatishini kutadi kitobxon. Chunki, tibbiyot instituti talabalari Gippokrat qasamyodini qabul qiladilar! Ilmini qurol qilib, insonning hayoti uchun qo‘ldan kelgancha kurashadilar. Lekin, Olmosning hamqishlog‘i "Sinoga izdosh bo‘lish" istagi qayerda qoldi? Qani, Bonuga yordam berib, daldadosh bo‘lgani? Bonu bora-bora o‘zi bilan o‘zi ovvora bo‘lib qoladi. Tuzalib ketish uchun hamma ishni qiladi. U har bir sinovni mardonavor kutib oladi. Uchramagan tabibi qolmaydi, keyin esa, sochlaridan ham ayriladi… Olmos esa quruq va’dalar berishdan boshqasiga yaramaydigan yigit ekanligini isbotladi. O‘zi uni inson deb aytish to‘g‘rimikin?! Nahotki, inson shu onlarda jimlikni ma’qul ko‘rsa! Bunday damda Bonuning ishqida "shoir" bo‘lgan Olmosni kim deyish mumkin? Yana ustiga-ustak, Bonuning oldiga o‘zi kelish o‘rniga, onasini jo‘natishi esa haqiqiy insonsizlikdir!

Oradan vaqt o‘tgach, Olmos Hilola ismli qizga uylanadi. Bir paytlar, Bonuga yuragini topshirgan yigit o‘zgasi bilan turmush quradi. Bonuning yuragi nimani his qildi-qilmadi! Iqbol Mirzo "Yurakning shakli" she’rida ifodalaganiday Bonuning yuragi ham: "… dardlarini ichiga sig‘dirolmay, tisirlab izlab yorilayotgan Anorga o‘xshar ko‘proq?"

Olmos – bevafolarning bevafosi! Nomardlikning yuksak darajasi unda mujassam! Shunchalar ham tubanlikka yuz tutib ketgan. Yana uyalmasdan Bonudan pul so‘raydi. Bonudan pul so‘rash mayli, lekin kasallik bilan hazillashib bo‘ladimi?! Yana kelib-kelib, Olmosni qizil saraton kasali bo‘lganini yozishga Yormuhammadning qanday jur’ati yetdi? Olmos, Hilola, Yormuhammad til biriktirib, Bonuni aldaganlariga chidab bo‘lmaydi. Bonu Olmosga

aldanganiga qaramay o‘zini tuta bildi. Chunki, Bonu – mard inson! Olmosni esa ta’rif-u tavsiflashga til ojiz! Unga “eng yaxshi tasannolar” aytish kerak. Olmosga faqat “charchamasdan chalingan qarsaklar” yarashgay. Halima Xudoyberdiyevaning misralari bilan aytganda, Olmosning sevgisi “bahor havosiday” o‘zgarib ketishini Bonuning sodda dili qayerdan ham bilsin?! Demak, bilsangiz, Olmosning botinidagi ko‘zlari – chinakamiga ko‘r! Olmosning tuyg‘ulari, Bonuga telefonda xat yozib: “Tun bo‘yi munosib tuhfa qidirdim, ko‘z o‘ngimdan dunyoning bor durri akbarlari, la’l-u zabarjadlari, oltin-u kumushlari… o‘tdi. Nihoyada, Siz uchun eng arzimas, men uchun yakka-yu yagona bo‘lgan jonimni hadya qilishga qaror qildim. Bu – yo‘l chetida yotgan oddiy tosh qatori beqadr bo‘lsa-da, Sizning barmoqlaringizda Ko‘hinur bo‘lib jilo topishiga zarra gumonim yo‘q. Shu tosh – Olmos butunlay sizniki:

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,

Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.” – deya aytgan so‘zlari ham, bari – soxta! [5. Iqbol Mirzo “Bonu” 20-bet] Farida Afruz o‘zining bir she’rida yozganiday “joningga jazo joningdagilar” bo‘lar ekan! Demak, INSONning dilini og‘ritmaslik, qalb uyini vayron qilmaslik – TOJ masala! Chunki, bular uchun qachondir javob so‘ralajak. Nomard Olmosga ta’rif bermoq uchun “bevafo” so‘zi bilan kifoyalanib bo‘lmaydi. Uni dunyodagi jamiki yomon sifatlar bilan ta’rif-u tavsiflasangiz ham kam! Olmosni yomon ko‘rishingiz mumkin, nafratlanishingiz ham mumkin. Biroq, u bizning nafratimizga ham arzimaydi. Olmosning xudbinligi, ma’naviy qashshoqligini ko‘rib, unga achinasiz, xolos.

Negadir, birdan bobomning gaplarini esladim. Bilasizmi, bobomning xonadonida eng yaxshi bir odat bor. Har kuni farzandlari, nabiralari ishga, o‘qishga yo‘l olishdan avval, ularni duo qilib, fotiha berib kuzatadilar. Duoga qo‘llarini ochganda har doim bir gapni aytadilar: “Baxting yotmasin”. Ammo, Bonuning baxti-chi?! Uning baxtiga nima qildi? U ham baxtli bo‘lishga haqli edi-ku! Asarning davomini o‘qir ekanman, Bonuning bundan keyingi hayoti iziga tushib ketishini kutdim. Eng asosiysi, Bonu tuzaldi! Hammani, hammasini kechirishga o‘zida kuch topib bilmasligi mumkin edi! Lekin, u buni xohlamadi. U chin ma’noda “baxtning ijodkori” bo‘lishga harakat qildi! Va buni uddalay oldi ham!

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, biz bu romanda manfaatli kir sevgini kuzatamiz. Har qanday sevgida ham insonning chin e’tiqodi sinovdan o‘tadi. Ammo, asardagi Olmos munofiq sevgi egasi. Yozuvchining mahorati shundaki, Bonu keyinchalik

sevgilisining tuban kimsa ekanligini bilganda ham, undan sirtdan ko‘ngli qolsa ham,

yuragining allanechuk bir burchida oz bo‘lsa-da sevgi samimiyatini saqlab qoladi.

Shu tariqa biz aralash his-tuyg‘ular ichida qolamiz. Olmosni qoralasak-da, Bonuga

achinamiz, yning sinovlarni mardonavor yengib o‘tgani va asl hayitga qaytgani tasalli beradi kishiga. “Bonuning tabiiy samimiyati, tabiiy oriyati o‘quvchini rom etadi va harakatdagi kurashchanlik namunasi bo‘lib tuyuladi”-deydi adabiyotshunos-olim I.G‘afurov. [3.Iqbol Mirzo — “Bonu”, 4-bet].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Normatov U. Ijod sehri. — T.: “Sharq”, 2007. — 352 b.

2. Iqbol Mirzo. “Bonu”. Roman. T.: “Sharq”. 2018. – 278 b.

3. I. G‘afurov. —Iqbol Mirzoning — “Bonu” romani haqida. / Iqbol Mirzo. “Bonu”. Roman. T.: “Sharq”. 2018. – 278 b.